



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yilida 6-sinflar uchun
I chorak tarixi fanidan

DARS

ISHLANMALAR

20__-20__-o‘quv yili 6-sinf tarixi fanidan I chorak uchun
taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Kirish	1		
2.	Qadimgi tarix ildizlari	1		
3.	Eng qadimgi odamlarning rivojlanish bosqichlari	1		
4.	Eng qadimgi odamlarning rivojlanish bosqichlari	1		
5.	Urug‘chilik jamiyati	1		
6.	Eneolit va bronza davri	1		
7.	O‘rta Osiyo temir davriga o‘tish davrida	1		
8.	Takrorlash	1		
9.	BSB – 1. Amaliy topshiriq (50 ball)	1		
10.	Nil vodiysi va uning aholisi	1		
11.	Qadimgi Misr va qo‘shni davlatlar	1		
12.	Qadimgi Misrda din	1		
13.	Qadimgi Misrda din	1		
14.	Piramidalar va daxmalar	1		
15.	Qadimgi Misr madaniyati	1		
16.	Mesopotamiya sivilizatsiyalari	1		
17.	CHSB – 1. (40 ball)	1		
18.	Bobil podsholigi	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Kirish

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: darsda yer yuzidagi ko'pgina odamlarni uzoq o'tmish, o'z xalqi va mamlakati tarixi qiziqtirishi. Qadimgi dunyo tarixi ushbu o'tmishni o'rganish to'g'risida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarga inson tosh qurollarni yasashdan to metallni kashf qilguncha, eng oddiy turarjoylarni qurishdan to dastlabki shaharlarni bunyod etguncha, turli-tuman hunarmandchilik buyumlari, yozuv va boshqalarni yaratguncha uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tishi to'g'risida tushuntirish.

Rivojlantiruvchi: Bizning Vatanimiz – O'zbekiston uzoq va shonli tarixga ega bo'lishi Aynan shu zaminda uzoq o'tmishda o'ziga xos sivilizatsiya yaratish. Ziroatchilar, hunarmandlar va quruvchilar o'zlarining mehnati va yaratuvchanlik salohiyati bilan o'lka dovrug'ini olamga yoyganlari haqida tushuncha berish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, ma'naviy va intellektual kamolotga intilish;

o'z xatti-harakatini adekvat baholash, o'zini nazorat qila bilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Bugun Yer yuzidagi ko'pgina odamlarni uzoq o'tmish, o'z xalqi va mamlakati tarixi qiziqtiradi. Qadimgi dunyo tarixi ushbu o'tmishni o'rganadi. Bu tarix turli-tuman arxeologik va yozma manbalarda o'z aksini topgan. Ular qadimiy davr odamlarining hayoti va faoliyati haqida hikoya qilib, savollarimizga javoblar topishga ko'maklashadi.

Inson tosh qurollarni yasashdan to metallni kashf qilguncha, eng oddiy turarjoylarni qurishdan to dastlabki shaharlarni bunyod etguncha, turli-tuman hunarmandchilik buyumlari, yozuv va boshqalarni yaratguncha uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tdi. Insondagi yaratuvchanlik sifati doimo qadrlanib kelgan. Hatto qadim zamonlarda, uzoq ajdodlarimiz hayoti xavf-xatar, tashvishlarga to'la bo'lganda ham, ular olamni anglashga harakat qilishgan. Bu esa ma'naviy madaniyat rivojlanishi uchun poydevor bo'lgan.

Bizning Vatanimiz – O'zbekiston uzoq va shonli tarixga ega. Aynan shu zaminda uzoq o'tmishda o'ziga xos sivilizatsiya yaratildi. Bu yerda qadimgi shaharlar va davlatlar tashkil topgan. Ziroatchilar, hunarmandlar va quruvchilar o'zlarining mehnati va yaratuvchanlik salohiyati bilan o'lka dovruq'ini olamga yoyganlar. Vatanga muhabbat bosqinchilarga qarshi kurashgan xalq qahramonlari jasoratida namoyon bo'ladi. Ular yurt ozodligini o'z hayotlaridan ustun qo'yganlar. Ajdodlarimizning jasorati va amalga oshirgan buyuk ishlari qalblarda vatanparvarlik hissini uyg'otadi, har birimizga Vatan manfaatlarini himoya qilishni o'rgatadi. Shu bois har birimiz o'z Vatanimiz tarixini bilishimiz va boshqa mamlakatlar xalqlarining tarixi va madaniyatiga hurmat bilan qarashimiz kerak.

- 1 → Darsda yozib olganlaringizni bir necha bor o'qing.
- 2 → O'qishdan oldin mavzu sarlavhasiga diqqat qiling, darsda nimalar deyilganini eslang.
- 3 → Har bir mavzu oxirida berilgan savollarni o'qing. Shunda siz yozganlaringizni o'qiganingizda nimalarga e'tibor berish lozimligini va o'qiganlaringizni qay tartibda bayon etish kerakligini bilib olasiz.
- 4 → Matnni taxminiy qismlarga bo'ling va har birining asosiy mazmunini o'z so'zlaringiz bilan ayting, keyin butun mavzuni gapirib bering. Gapira olmasangiz, qiyin joylarini qayta o'qing. Takrorlang. Darslik matnini yod olish kerak emas.
- 5 → Matnni o'qish jarayonida unda eslatilgan rasm va jadvallarni toping, izohlarini o'qing, matnda uchragan shaharlar, mamlakatlar nomlarini xaritadan toping.
- 6 → Savollarga javob bering va mavzu oxiridagi topshiriqlarni bajaring.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Tarix bizni zo'ravonlik bilan hamma narsaga erishishga emas, balki o'zaro murosa va boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Tarixni sana va nomlar uchun emas, balki ajdodlarning bebaho yaratuvchanlik tajribasi uchun o'rganish kerak.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Qadimgi tarix ildizlari

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: darsda yer yuzidagi ko'pgina odamlarni uzoq o'tmish, o'z xalqi va mamlakati tarixi qiziqtirishi. Qadimgi dunyo tarixi ushbu o'tmishni o'rganish to'g'risida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarga inson tosh qurollarni yasashdan to metallni kashf qilguncha, eng oddiy turarjoylarni qurishdan to dastlabki shaharlarni bunyod etguncha, turli-tuman hunarmandchilik buyumlari, yozuv va boshqalarni yaratguncha uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tishi to'g'risida tushuntirish.

Rivojlantiruvchi: Bizning Vatanimiz – O'zbekiston uzoq va shonli tarixga ega bo'lishi Aynan shu zaminda uzoq o'tmishda o'ziga xos sivilizatsiya yaratish. Ziroatchilar, hunarmandlar va quruvchilar o'zlarining mehnati va yaratuvchanlik salohiyati bilan o'lka dovrug'ini olamga yoyganlari haqida tushuncha berish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy madaniy an'analar va h.k.) hurmat qilish;

o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, diniy e'tiqodi, milliy xususiyatlari, an'ana va arosimlarini hurmat qilish; jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

tarixda yil hisobini o'qiy olish, tarixiy darvlarga oid chizmalarni o'qiy olish, rim raqamida yozilgan raqamlarni o'qiy oladi.

miloddan avvalgi, era, milodiy yillar o'rtasidagi farqlarni matematik amallar bilan yecha oladi.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Viqorli tog'lar qoyalarida asrlar davomida qorlar erimaydi. Tog' jilg'alari qo'shilib, toshqin daryolarni hosil qiladi. Qush uchsa, qanoti kuyadigan sahro, poyonsiz cho'llarda issiq shamol esib turgan. Karvon yo'llari kesishgan joylarda dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan odamlar to'planib, qizg'in savdo-sotiq qilishardi.

Yurtimizning ziroatkor vohalarida asrlar davomida bog'lar gulga cho'mardi. Yozma manbalar mardimaydonlarning jasorati haqida so'zlaydi. Odamlar cho'l-u biyobonlarni chamanzorlarga aylantirib, shaharlar, ajoyib inshootlar qurdilar, osmon sirlarini kashf qildilar. Qarang, osmonda minglab yulduzlar charaqlaydi. Ular shunchalik yaqin tuyuladiki, qo'l cho'zsang – yetgudek. Oftob ning dastlabki yog'dularida hashamatli binolarning moviy gumbazlari jilvalanib ko'rinadi va gumbazlar osmon bilan singi shib ketgandek bo'ladi. Uzoq-uzoqlardan qo'shiq taralmoqda.



Bu – ona allasidir. Ona allasidan ona Vatan boshlanadi. Yam-yashil vodiylar va zilol suvli sharqiroq buloqlardan, birinchi o'qituvchi va kitobdan, biz yashab turgan ko'cha va xonadon ostonasidan boshlanadi jonajon Vatan. Bugungi kunda ham serhosil vodiylar, cho'l va tog'larda katta-kichik shaharlar, qal'alar va qadim ibodatxonalar qoldiqlarini ko'ramiz. Odamlar bu joylarni allaqachonlar tark etishgan. Qadim shaharlar xarobalari kimsasiz. Vayronalar unsiz, ularni sho'r va yovvoyi o'tlar bosgan. Biroq odamlar qadami uzilgan bu joylarga qadimshunoslar kelishdi. Ularning sa'y-harakatlari bilan qadimgi shahar va qal'alar xarobalari tuproqlar ostidan yuz ko'rsatib, uzoq o'tmishdan so'zlay boshladi. Kitob o'qib, sayohat qilib, muzeylarni borib ko'rib, tarix va madaniyat yodgorliklari haqida ko'proq bilimga ega bo'lamiz.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Arxeologlar, antropologlar va etnograflar nimalarni o'rganadilar?
2. Olimlar qaysi manbalar yordamida tarixni qayta tiklaydi?
3. Tarixni o'rganishda foydalanilgan moddiy manbalardan qaysilarini bilasiz?

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

39 listdan iborat 6-sinf tarix fanidan I chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**